

Humans mobil ilovasida «C2C o'tkazmalar (cardtocard – kartadan kartaga) amalga oshirilganligi uchun foydalanuvchi komissiyasini kamaytirish» Aksiyasi qoidalari (yangi tahrirda)

28 iyun 2023

Humans mobil ilovasida «C2C o'tkazmalar amalga oshirilganligi uchun foydalanuvchi komissiyasini kamaytirish» Aksiyasi «Maroqand» MChJ, manzil: Toshkent sh., Mirzo Ulug'bek tumani, Navnihol ko'chasi, 86 uy, STIR 305465762 (UPAY) va «Humans» mas'uliyati cheklangan jamiyati, manzil: 100047, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Maxtumquli ko'chasi, 2 B uy, STIR 306624856 (Humans) o'rtasida Humans Sodiqlik Dasturi doirasidagi qo'shma aksiya.

1. Aksiya haqida ma'lumot

1.1. Ushbu Qoidalarning matnida bosh harf bilan foydalanilgan so'zlar atamalar hisoblanadi. Atamalar ma'nosi <https://terms.upay.uz/oferta/> saytida joylashtirilgan UPAY to'lov xizmatining Ommaviy ofertasida, www.humans.uz Saytida joylashtirilgan Humans Sodiqlik Dasturi qoidalarida, «Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi» servisidan Foydalanish qoidalarida keltirilgan, agar ushbu Qoidalarda boshqasi nazarda tutilgan bo'lmasa.

1.2. Aksiya ishtirokchilari – «Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi» servisidan foydalanadigan, Humans mobil ilovasida bank kartasini bog'lagan va Qoidalarning 2 bandida keltirilgan amallarni bajargan Mijozlar jismoniy shaxslar.

1.3. Aksiya o'tkazilish hududi: O'zbekiston Respublikasi.

1.4. Aksiyani yangi tahrirda o'tkazish davri: 28.06.2023 yildan muddati cheklanmagan.

1.5. C2C o'tkazma – Aksiyaning joriy Qoidalari maqsadida bu Aksiya Ishtitokchisi tomonidan pul mablag'larini boshqa jismoniy shaxsga o'tkazish.

2. Aksiya tavsifi

2.1. 28 iyun 2023 yildan joriy Qoidalarga rioya qilingan holda, Aksiya Ishtirokchilariga C2C o'tkazmalarni mijozlik komissiyasi undirilmasdan amalga oshirish imkoniyati agar Aksiya Ishtirokchisining bir kalendar oyi davomidagi barcha C2C o'tkazmalari yig'indisi 5 000 000 (besh million) so'mdan oshmasligi sharti bilan beriladi.

2.2. 28 iyun 2023 yildan agar Aksiya Ishtirokchisining barcha C2C o'tkazmalari yig'indisi bir kalendar oyi davomida 5 000 000 (besh million) so'mdan oshsa, Aksiya Ishtirokchisi C2C o'tkazmalarni

amalga oshirishda foydalanuvchi komissiyasining quyidagi jadvalda keltirilgan qiymatlargacha kamaytirilishi imkoniyatiga ega bo'ladi:

C2C_yo'nalish	Foydalanuvchi komissiyasi
Uzcard kartasidan Uzcard kartaga	0,25%
Uzcard kartadan Humo kartaga	0,25%
Humo kartadan Humo kartaga	0,25%
Humo kartadan Uzcard kartaga	0,25%
Visa kartadan Uzcard kartaga	0,25%
Visa kartadan Humo kartaga	0,25%

Bunda jadvalda keltirilgan komissiyalar faqatgina Aksiya Ishtirokchisi tomonidan amalga oshiriladigan C2C o'tkazmalar yig'indisi bir kalendar oyi davomida 5 000 000 (besh million) so'mga yetgandan keyin undiriladi.

2.3. Aksiyada «Humans mahsulotlari va xizmatlari vitrinasi» servisining amaldagi Mijozlari ishtirok etishlari mumkin, agar servidan foydalanish Humans tomonidan to'xtatib turilgan yoki tugatilgan bo'lmasa.

2.4. Aksiya o'tkazilishi davrida «Hisobni to'ldirish uchun bonus» Aksiyasi shartlari o'zgaradi», ya'ni Humans Shaxsiy hisobni to'ldirish uchun Bonus berilishiga bir kalendar oyida 10 000 (o'n ming) so'm maksimal cheklov tayinlanadi. Bir kalendar oyida Bonus tayinlanadigan Humans Shaxsiy hisobni to'ldirish maksimal miqdori 2 000 000 (ikki million) so'mni tashkil etadi.

2.5. Aksiya o'tkazilishi davomida C2C o'tkazmalarni amalga oshirishda Keshbek berilmaydi.

2.6. Aksiyaning bitta Ishtirokchisi uchun C2C o'tkazmalar soni cheklanmagan.

3.Yakuniy qoidalar

3.1. Yangi tahrirdagi ushbu Qoidalar Humans Saytida e'lon qilingan paytdan boshlab kuchga kiradi. Humans va UPAY bir tomonlama tartibda ushbu Qoidalarni o'zgartirish, Aksiyani uzaytirish yoki bekor qilish, bu haqida Humans Saytida tegishli xabarni joylashtirish orqali xabardor qilish huquqiga ega. Xabar berish sanasi tegishli ma'lumotlar Humans saytida joylashtirilgan sana hisoblanadi. Humans Saytida tegishli ma'lumotlar e'lon qilingan paytdan boshlab qoidalar o'zgartirilgan deb hisoblanadi va Aksiya uzaytiriladi yoki bekor qilinadi.

3.2. Humans mobil ilovasi Ishtirokchisi tomonidan C2C o'tkazmalarni amalga oshirish jismoniy shaxslarga qaratilgan oferta Qoidalarining to'liq va so'zsiz qabul qilinishini anglatadi.